13. State Tax Committee of the Republic of Uzbekistan. 2025. Administrative and Tax Statistics on Food Service Enterprises. Tashkent.

14. Republic of Uzbekistan. Tax Code of the Republic of Uzbekistan. Tashkent.

15. Republic of Uzbekistan. Code of Administrative Liability. Tashkent.

16. Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. Resolution No. 75 (13 February 2003); Resolution No. 394 (20 June 2020); Resolution No. 745 (7 November 2024).

17. Presidential decrees and resolutions: PD-6098 (30 October 2020); PR-104 (27 January 2022); PR-178 (24 March 2022); PD-132 (30 August 2024); PD-50 (19 March 2025).

18. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2025). *O‘zbekistonda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash natijalari* [Statistical report]. Tashkent: National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan.

19. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2025). *Gross Domestic Product Production of the Republic of Uzbekistan for 2024* [Statistical bulletin]. Tashkent, Uzbekistan: National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI NAZDIDA OILA VA UNING TUZILISHI HAQIDA NAZARIY QARASHLAR

Ergasheva Moxina Narzulla qizi
9-sonli DMTT psixologi

Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.

Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi” Shu sababli ham oila, uning tuzilishi, oilaviy munosabatlar asrlar o‘tsa hamki o‘zining dolzarbligini, o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojini yo‘qotgani yo‘q. Ushbu izlanish ishlari esa Sharq mutafakkir olimlari tomonidan chuqur tahlil etib hanuz o‘rganilib kelinmoqda. Chunonchi, Rizouddin ibn Faxruddin, Abu Rayhon Beruniy, Faxr-ul Banot Sibg‘atulloh qizi, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Abay Qo‘nanbayev va boshqalarning asarlaridagi oila va nikoh, oilaviy munosabatlar to‘g‘risidagi qarashlar aks ettirilgan bo‘lib ular hanuz o‘z haqiqatini va ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Navoiy ayol kishining oiladagi o‘rniga quyidagicha to‘xtaladi:

“Yaxshi xotin — oilaning davlati va baxti. Uning ozodaligi, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan, husnli bo‘lsa — ko‘ngil yozig‘i, xushmuomala bo‘lsa — jon ozig‘idir.

Oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda tartib-intizom bo‘ladi, asbob-anjomlar saranjom turadi. Kishi bu kabi jufti halol bilan qovushsa, agar bunday baxtga erishsa, g‘am va kulfatda sirdoshga, oshkor va pinhoniy dard-alamda hamnafas tan mahramiga ega bo‘ladi. Turmushda boshingga har qanday jafo tushsa, hamdarding u. Teskari aylanuvchi falakdan har balo kelsa, ko‘makdoshing u. Ko‘nglingga g‘am yuzlansa, u hamroh, badaningga xastalik va zaiflik kelsa, uning ham joni halak, ammo xudo ko‘rsatmasin, nomuvofiq xotin uchrasa, o‘z uyingda halokatli illat paydo bo‘ladi. U beandisha, shallaqi bo‘lsa, ko‘ngil undan ozor chekadi va yomonlik axtaruvchi bo‘lsa, undan ruh azob chekadi. Tili achchiq bo‘lsa, barchaning dilini yaralaydi, pokiza bo‘lmasa, eriga yuzi qoralik keltiradi, agar mayxo‘r bo‘lsa, uy odobi yo‘qoladi, axloqsiz bo‘lsa, oila rasvo bo‘ladi” [66].

Buyuk allomaning oilaviy baxt, sevgi va er-xotin munosabatlari, ularga zarur bo‘lgan fazilatlar borasidagi bunday fikrlarini bilish, ularga rioya qilish har bir yoshning muqaddas burchi bo‘lmog‘i shartBu mutafakkirlarning yondashuvlari, o‘sha davr ijtimoiy, madaniy va diniy kontekstlarini ham hisobga olib, oilaviy munosabatlarning psixologik jihatlarini tahlil qilgan. Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan globallashuv davriga kelib ham O‘zbekiston o‘z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e’zozlashda, deb bilayotgani an’anaviy qadriyatlarimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanganida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Mutafakkir olimning sog‘liqni saqlashga doir risolalarida jinsiy aloqalarning me’yorlari, unga qat’iy amal qilish, jinsiy aloqalarda o‘zgarishning sabablari, ularni yo‘lga qo‘yish tadbirlari haqida ham qimmatli ko‘rsatmalar berilgan. Uning fikricha, er-xotin ularni yodda tutishi va unga amal qilishi oilaviy munosabatlar barqarorligiga ijobiy ta’sir etadi. Shuningdek, Ibn Sino “Kitob ush-shifo” asarida oila inqirozi va buzilishiga sabab bo‘ladigan omillarni ham ko‘rsatib o‘tgan.

Bularga:

1. Agarda er va xotinlikdan farzand dunyoga kelmagan bo‘lsa.
2. Agarda xotin eriga hiyonat qilib, uning e’tiborini pasaytirsa.
3. Xotin kishi tarbiyasiz bo‘lsa-yu, tarbiya olishni istamasa.
4. Er va xotin bir-birlariga yoqmaydigan xarakterli bo‘lsa.

Ko‘rinib turibdiki, Ibn Sino asarlarida oila- nikoh va oilaviy turmushda er-xotin munosabatlarini ibratli misollar asosida yoritgan hamda ayollar mavqei undagi munosabatlarda muhim o‘rin tutishini asoslab bergan.

Kaykovus qalamiga mansub “Qobusnoma” asarida (1082-1083 yillarda yozilgan) “ishq va uning odatlari zikrida”, “xotin olmoq zikrida” ham qimmatli ma’lumotlar berilgan. “Ey farzand, to kishining ta’bi latif bo‘lmaguncha oshiq bo‘lmag‘usidir, nedinkim ishq beshak ta’bi latiflikdan paydo bo‘lur. Har narsaki ta’bi latiflikdan paydo bo‘lsa, ul beshak latif bo‘lur”. Bu yerda insonning qalbi toza, pok va axloqan yuksak bo‘lsa, uning ko‘ngli, sifat va fazilatlari ham, hissiy kechinmalari ham sof va chiroyli bo‘lishiga ishora qilingan. “Bas, agar oshiq bo‘lsang shundoq kishiga bo‘lgilki, ul ma’shuqalikka loyiq bo‘lsin”. Bunda bo‘lg‘usi er-xotinning nikohigacha davrda bir-birini ko‘rib-bilib, sinab ma’shuqaning oqila, orasta, tejamkor, saranjom-sarishta, bola tarbiyasini, uy-

ro‘zg‘or ishlarini o‘rniga qo‘yadigan kamtarin va eriga sadoqatli bo‘lishi nazarda tutiladi.

“Ey farzand, agar xotin olmoq tilasang, o‘z hurmatingni yaxshi saqlagil. Garchi mol aziz bo‘lsa ham xotin va farzandingdan darig‘ tutma.

Ammo xotinni pok dil, farzandni farmonbardor va mehribon tutgil bu ish sening qo‘lingdadir. Bu o‘rinda xotinga xos munosabatda bo‘lish erning ixtiyorida ekanligi ogohlantirilgan.

Xotin talab qilsang, xotinni molini talab qilmagil, xotin pok nixod (toza tabiat va pok dil) bo‘lsin. Kadbonu (uy bekasi va ishchan xotin) eriga do‘st bo‘lgay. Hayolig‘, taqvador, tili qisqa, molni yaxshi saqlaguvchi bo‘lsin. Debdurlarki, yaxshi xotin erning va umrning rohati bo‘lur. Bunda esa bo‘lgusi turmush o‘rtog‘ini tanlashda erning oldidagi mas’uliyat va latif xotin bo‘lishga xos fazilatlar bayon qilingan.

Agar sen xotiningga rashqlik qilmasang, u senga samimiyat bilan munosabatda bo‘lur. U senga ota-onang va farzandlaringdin ham mushfiqroq bo‘lur va senga undin do‘stroq kishi topilmas. Agar unga g‘ayrroq (rashq, qizganish) ko‘rguzsang, senga ming dushmandin dushmanroq bo‘lur va begona dushmandin hazar qilsa bo‘lur, lekin undin hazar qilib bo‘lmas” Bunda er-xotinning o‘zaro munosabatlarini ziddiyatlarning shakllanishiga olib keluvchi sabablar va omillar haqida gap boradi.

Tahlillardan ko’rib turibmizki, oilada er-xotin munosabatlari muammosi g‘arb ilm-fanida jamiyat talablari asosida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilk marotaba maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o‘rganila boshlandi. Lekin 20-asrning 80-yillarida jamiyatning ijtimoiy psixologik, sotsiologik muammosi sifatida ko’plab tadqiqotchilarning diqqat markaziga chiqib, keng ko’lamli tadqiqotlarning asosiy mavzusiga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Ali ibn Sino. Tadbir ul-manzil. Muhammad Najmiy Zinjoniy tarjimasi. – Tehron: Eron Milliy kutubxonasi, 1902. – 28 b.
2. Karimova V. Oila psixologiyasi. Toshkent – “Fan va texnologiya”, 2008. – 74-bet.
3. Karimova V. Oila psixologiyasi asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti, 2020.
4. Karimova V.M. “Yoshlarda o‘zbek oilasi to‘g‘risida ijtimoiy tasavvurlar”.